

**ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARINI O'QITISH
UCHUH INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISH, UMUMTA'LIM
MUASSASALARINI MAXSUS MOSLAMALAR (KO'TARISH QURILMASI,
PANDUS, TUTQICH VA BOSHQALAR), SHUNINGDEK TEGISHLI
KADIRLAR (MAXUS PEDAGOG, BOLALARINI RUHIY-PEDAGOGIK
KUZATISH BO'YICHA MUTAXASSISLAR) BILAN TA'MINLASH.**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
O’zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-kurs talabasi
Xo’jamurodova Nasiba
JDPU Maxsus pedagogika kafedrasи o’qituvchisi
Djurayeva Sohiba*

Annotatsiya: Inklyuziv ta'lim-bu barcha bolalarning, jumladan, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning ham bir xil maktab va sinfxonalarda, teng sharoitlarda ta'lim olishni ta'minlaydigan yondashuvdir. Shuningdek, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bollarni o'qitish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim yondashuvi ushbu bolalarni umumiyligi ta'lim muassasalariga jalb qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Ammo, inklyuziv ta'lim samarali bo'lishi uchun muassasalar maxsus moslamalar bilan ta'minlanishi, shuningdek, malakali kadrlar bilan to'ldirilishi lozim.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lif, alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar, inklyuziv ta'lif tizimi, umumta'lif muassasalari, maxsus moslamalar, maxsus pedagog, mutaxassislar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyoni zabit etishi kabi muhim masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-onalar qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta'minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta'limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun uzviylik va uzlusizligini ta'minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Jumladan inklyuziv ta'limni ham joriy etish ham ma'lum bir rejalarini amalga oshirishning asosidir. Ushbu ta'limning hayotga tadbiq etilishidan maqsad jamiyatdan

chetda qolayotgan, o'z o'rnini topishga qiynalayotgan, o'z qobig'iga o'ralib, dunyo yutuqlaridan bexabar qolayotgan, jamiyatning ma'lum masalalarini hal etishdan yiroqda bo'lgan insonlarni jamiyatda o'z o'rinalarini topishga ko'maklashishdan iboratdir. Bu borasida Suleyemonova R.A fikricha Agarda nogiron bollarning o'z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etishimkoniyatlari rad etilsa ularning imkoniyatlari keskin kamayadi. Degan fikrni bildirdi [BMT 1975-yilda «Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida»gi Deklaratsiya 21-bet]. Ushbu fikrlar ham alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning jamiyatdan uzilgan holda barcha imkoniyatlarini nomoyon qilgan holda yashay olmasligini isbotlaydi. Inklyuziv ta'limning maqsadi esa bu kabi kamchiliklarga barham berishdan iborat. Albatta, bu ishlarni amalga oshirish oson emas.

Inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalar uchun ularning qay taraflama yordamga muhtojligiga qarab ular uchun kerakli barcha shart-sharoitlar yaratiladi. Ular uchun moslashtirilgan holda dastur hamda rejalar tuziladi o'quv jarayonlari ham ularga moslashtiriladi. Qaysi azosida nuqsoni (ko'rish, eshitish, tayanch-harakatida, nutqida va hokazo) mavjudligiga qarab mакtab maxsus moslamalar bilan jihozlantiriladi. Ularning ta'lim jarayonini o'zlashtirishda yordam berish maqsadida maxsus pedagog va psixologlar bilan ta'minlanadi.

Inklyuziv ta'lim sinflarida o'quv ta'lim jarayoni quyidagicha tashkil etiladi: inklyuziv ta'lim sinflaridajami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi kerak. Ushbu sinflarda umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga maxsu(korreksion)dasturlar asosida o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar soni 3 nafardan oshmasligi kerak.

Inklyuziv ta'lim sinflariga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o'quvchilar qabul qilinadi.

Maktablarda inklyuziv ta'lim sinflari soni parallel sinflarda ikkitadan ortiq tashkil etilmaydi. Inklyuziv ta'lim sinflarda o'qitish va tarbiyalash jarayoni o'quvchilarining alohida xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. O'quvchilarining bilimlari ulardagi nuqsonlarning o'ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta'lim standartlariga muvofiq baholanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv rejasi va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boriladi.

Inklyuziv ta'lim sainflarining o'quvchilariga individual ta'lim adsturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Har bir inklyuziv ta'lim sinflari ochilgan maktab uchun alohida maxsus pedagog shtat birliklari ajratiladi. [26-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2023-yil 29-dekabrdagi 705-sonli qarori tahririda Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi ,29.12.2023-y,09/23/705/1000-son]

O'quvchilar bilan individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirish ,maxsus pedagoglar tomonidan ta'lim jarayonidagi barcha darslarda , sinfda tashqari boshqa tadbirdorda amalga oshiriladi. [27- band O'zbekisto Respublikasi Vazirlar Mahkamsining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qarori tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi ,03.08.2022-y,09/22/425/0712-son].

Inklyuziv ta'lim sinflari ochilgan maktaablarda o'quvchilarga individual ta'lim tizimini o'zlashtirish rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash ularga turli ko'rinishdagi psixologik yordam berish maqsadida maxsus yordam ko'rsatish xonalari tashkil etiladi.

Albatta, maxsus yordam ko'rsatish xonalari maxsus jihozlar bilan ta'minlanadi. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan sinflarga tyutor (maxsus pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega bo'lgan volyontorlar oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogic amaliyot bdavrida ixtiyoriylik asosida jalg qilinadi. Inklyuziv ta'lim sinflarida o'quvchilarga oliy ma'lumotli, shuningdek, tegishli qayta tayyorlashdan o'tgan o'qituvchi yoki defektologlar tomonidan dars beriladi.Har bir o'quvchi uchun umumiy o'rta ta'lim dasturi va maxsus ta'lim dastridan kelib chiqqan holda maktab tomonidan tasdiqlanadigan yillik reja va mashg'ulotlar jadvali tuziladi.Bunda o'quvchining psixojismoniy xususiyatlari ,qiziqishlari hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning tavfsiyalari inobatga olinadi.

Tyutor;

Ta'lim jarayonida sodir bo'layotgan qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi, ta'lim jarayonining individuallashuvi uchun ko'maklashadi,o'quvchilarning o'quv dasturlarini o'quv ta'lim standartlariga muvofiq darajada o'zlashtirishlariga ko'maklashadi va b.

Maktab psixologi;

Har bir o'quvchining psixik salomatligini himoyalash, o'quvchilar bilan guruhda mashg'ulotlar olib boorish, o'quvchilarni doimiy psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tabiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Maktabdagagi jismoniy tarbiya o'qituvchi o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlsh, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish vazifasini bajaradi.

Maktabdagagi tibbiyot xodimi tomonidan o'quvchilarga tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadagigan bo'lsam, inklyuzi ta'lim ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga juda ko'plab imkoniyatlar yaratib beradi. Ularning o'z orzu-umidlari, istakhoxishlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Shuningdek ushbu imkoniyatlar ularning rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Yuqorida aytib

o'tganimizdek, ular uchun maxsus o'quv dasturlari tuziladi. Ularning holati, vaziyati, rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda dars jarayoni ularga moslashtiriladi, visual ,kinestetik, eshitish usullari uyg'unlashtiriladi, nogironligi bo'lган bolalar uvhun kirish chiqish joylari, rampa va eshiklar kengaytiriladi. partalar harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lishi, yorug'lik va ovoz muhitini tartibga solinishi-kam eshitadigan yoki ko'rishida muammozi bo'lган o'quvchilar uchu sharoit yaratiladi, darsda piktogramma, rasmlar, katta harfli matnlar v audiovisual resurslardan foydalaniladi, qulq eshitish moslamalari yoi nutq sintezatorlari kabi yordamchi texnologiyalar qo'llaniladi, stress hamda bezovtalikni kamaytirish uchun shovqinsiz zonalar tashkil etiladi .Ularga maxsus pedagoglar ,psixologlar,tibbiyot xodimlari biriktiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. 638 12.10. 2021-QAROR.DOC.
2. D.SH.NAFASOV,I.X.RUZIMOVA,I.Q.SAYFULLAYEVA,N.B.DJABBOROVA
Inklyuziv ta'lim.Gospital pedagogika.'BOOKMANY PRINT' TOSHKENT-2024.
3. N.B.GOPOVA.INKLYUZIV
TA'LIM.GOSPITAL
PEDAGOGIKA.NAMANGAN-2024.
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI
. (2020).O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TO'G'RISIDAGI QONUNI.